

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

**”Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası
5141700- maktabgacha ta’lim yo’nalishi 402- guruh talabasi**

Xabibullayeva Zebinso Fatillayevna

“XVIII-XIX asr o`rtalarigacha bo`lgan bolalar adabiyoti” mavzusidagi

KURS ISHI

Ilmiy rahbar: O’qituvchi. S. Nasimov

Samarqand- 2013 yil

Reja

Kirish.

I.I. Bob. XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan shoirlarni asarlarining bolalar adabiyotida o'rni.

I.I. Bolalar adabiyoti va kitobxonligida M.Nishotiy va M.Sh.Gulhaniy ijodining mumtoz adabiyotimiz tarixida o'rni.

I.2. XIX asrning boshlarida yashagan A.Avloniy va H.H. Niyoziyning bolalar adabiyotiga qo'shgan hissasi.

II. Bob. XVIII-XIX asr o'rtalarigacha yashab ijod etgan shoirlar asarlarining ta'lim - tarbiyaviy ahamiyati.

2.1. M.Sh. Gulhaniyning asarlarida ijtimoiy qarashlarining ifodasi.

2.2. M.Sh. Gulhaniy "zarbulmasal" haqida.

Xulosa.

Adabiyotlar ro'yhati.

KIRISH

Prezidentimiz tashabbusi va rahnamoligida sog'lom avlodni tarbiyalash borasida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim muassasalari, korxona va tashkilotlarda sport – sog'lomlashtirish inshootlari, tennis maydonchalari barpo etilmoqda. Biroq sog'lom avlod deganda faqatgina jismonan baquvvat insonnigina tushunish masalaga bir yoqlama yondashish bo'lur edi. Avlod barkamolligi uningsh ma'naviy kamolotiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan bola tarbiyasi milliy, ma'naviy, ruhiy, jismoniy jihatdan yondashishni talab etadi.

Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib, ulg'ayishiga bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam hisoblanib, juda tez o'sish, rivojlanish va o'zgarishlar ichida yashaydilar. Bu bola tarbiyasida aynan shu palla qanchalik ahamiyatli ekanini yana bir isbotidir.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasida: «Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasi va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi», – deb ta'kidlangan. Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, uning samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va insonning butun hayot tarziga ijobiy ta'sir qiladi.

Mustaqillikning dastlabki davrlaridanoq mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikning taminlash elementar farag'onligi o'sib kelayotgan yosh avlodning

Barkamol shaxs sifatida shakllantirish davlat ahamyatiga molik asosiy vazifalar sifatiga qarashini taqozo etmoqda. Bu vazifalarini izchil amalga oshirishi uchun, birinchi navbatda maktabgahca tarbiya yoshidagi bolalarni aqilliy tarbiyalash muhim ahamyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib tadqiqotning nazariy asoslari:

Ma'lumki har bir tadqiqot uchun tanlangan mavzu bo'yicha olib boriladigan ishlarda uning maqsadi, vazifasi, dolzarbligini nazariy jihatdan asoslab o'tishni

taqazo qiladi. Shu talabni hisobga olib, bizning izlanishimiz ham ilmiy nazariy jihatdan o'zining tayanch manbalariga ega bo'lgan holda yuritiladi.

I.A.Karimovning maktabgacha ta'lim muassasalari, ularga qo'yilayotgan pedagogik – psixologik talablar yuzasidan so'zlagan nutqlari, fikrlari va Respublikamizda bu soha bo'yicha qabul qilingan qarorlar, shuningdek shu sohaga oid olib borilgan izlanishlar, O'zbekistonda bu sohaga qo'l urgan olimlardan Razzoqov. H Jumaboyev. M va boshqalar yaratgan darslik va boshqalar yaratgan darslik va qo'llanmalarni o'qib o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib belgiladik. Ulardan tegishli xulosalar chiqarib ishlarimizning nazariy ettirib berdik. Sharhlar, bobida ularni aks ettirib berdik.

Tadqiqotning asosiy maqsadi: Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularga XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan shoirlarni asarlarining bolalar adabiyotidagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslashdir.

Tadqiqotning obyekti:

Maktabgacha ta'lim muassasalarida Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim – tarbiya jarayoni.

Tadqiqotning predmeti:

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan shoirlarni asarlari bilan tanishtirish.

Kurs ishining vazifalari:

Yuqorida qayd etilgan maqsadimizdan kelib chiqib:

Kurs ishi uchun tanlangan mavzu bo'yicha pedagogik – psixologik, ilmiy va o'quv adabiyot materiallarni o'rganib umumlashtirish.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan shoirlarni ijodi bilan tanishtirishning hozirgi zamon pedagogika va yosh psixologiyasiga oid adabiyotlardagi materiallarni o'rganish, ilmiy amaliy jihatdan tahlil qilish.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tarbiyalashning amaliy ahamiyatini o'rganish.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ruhiy taraqqiyoti va jismoniy rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy ravishda olib borish.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ongi va xarakteriga xos bo'lgan xususiyatlarni pedagogik – psixologik nuqtai nazardan ilmiy asosda tushuntirib berish.

Sanab o'tilgan vazifalarni amalga oshirish uchun pedagogika va yosh psixologiyasi fani sohasida qo'llanib kelinayotgan biz quyidagi metodlardan foydalandik:

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish

Bolalarni turli faoliyatlari jarayonida kuzatish

Suhbat metodi

Ko'rsatmali metodlar

Kurs ishimizning ilmiy farazi (gipotezasi) agar biz tanlangan mavzu bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy apparat tarkibidagi tadqiqot tadbirlarini maqsadga muvofiq qo'llab borilsa, Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan shoirlarni asarlari ijodidan samarali foydalanishdir.

Kurs ishimizning mazmuni uning rejasida ko'rsatilgan tuzilishga ega. U to'liq ikki bob, to'rt bo'limdan iborat bo'lib, unda kirish, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Mazkur kurs ishidagi o'tkazilgan amaliy tadbirlar Samarqand shahridagi 119-90-sonli maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshirildi.

I.I. Bob. XVII-XIX asr o`rtalarigacha bo`lgan bolalar adabiyoti.

I.I. Bolalar adabiyoti va kitobxonligida M.Nishotiy va M.Sh.Gulxaniy va boshqalar ijodining mumtoz adabiyotimiz tarixida o`rni.

XVIII asrning oxiri, XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan ikki buyuk shoir Muhammadniyoz Nishotiy va Muhammad Sharif Gulxaniylar ijodi mumtoz adabiyotimiz tarixida alohida ajralib turadi. Nishotiyning xalq og'zaki ijodi asosida yaratgan „Husni dil“ dostoni ishq-muhabbat, aql-farosat, odob-axloqqa bag'ishlangan. Shu narsa diqqatga sazovorki, dostonda har biri mustaqil asar bo'la oladigan „Shohboz va bulbul“, „Gul va Daf“, „Nay va Shamshod“, „Binafsha va Chang“ kabi masallar ham berilgan. Bu masallarning barchasi el-yurtga foyda keltirish, maqtanchoq bo'lmaslik, ortiqcha kibr-havoning zarari kabi mavzularning yoritilishi jihatidan bolalar uchun ibratlidir.

Gulxaniy ham „Zarbulmasal“ asarida o'zining muhim ijtimoiy qarashlarini, el-ulus taqdiriga munosabatini hayotiy timsollar orqali ifodaladi.

Munis mehnatkash xalqning og'ir ahvoliga qattiq achindi, ilm-fan va adabiyot ahlining xor-zorligidan qayg'urdi. Shoir kishilarni bilim olishga, kitob o'qishga, johil va yomonlardan uzoq bo'lishga chaqirdi. Munis „Savodi ta'lim“ risolasi orqali bolalarni o'qitish va tarbiyalash ishiga katta hissa qo'shdi. Uning ma'rifatparvarlik g'oyalari Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Komil, Zavqiy, Avaz O'tar kabi shoirlarga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Ma'rifatparvarlikni bayroq qilib ko'targan Abdulla Avloniy, Behbudiy, Hamza, Fitrat, Munawarqorilar tomonidan yozil-gan darslik va qo'llanmalarda bolalar hayoti, o'qishi, axloq-odobi haqida materiallar beriladi.

Sizga tarixdan yaxshi ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Turkiston o'lkasi mamlakatlarida iqtisodiy, siyosiy, harbiy tanazzul avj nuqtaga chiqdi. Uch xonlikka bo'linib ketgan qadim Turkiston aholisi dunyodagi rivojlangan mamlakatlardan deyarli uzilgan holda hayot kechirardi. Xonliklardagi ijtimoiy tartibot bir necha asr oldingi mezonlarga asoslangan bo'lib, yangi zamon talablariga mutlaqo javob bermas, ilg'or ijtimoiy tafakkurning o'sha bosqichiga xos ystakchi xususiyatlarni hisobga olmasdi. Ijtimoiy hayotdagi qoloqlik, siyosiy

tuzumning nobopligi, tashkiliy-boshqaruv tizirining zamondan ortda qolganligi o'lka aholisining turmush tarziga ham keskin salbiy ta'sir ko'rsatgan va u ma'rifatsizlik, qashshoqlik qa'riga uloqtirilgan edi. Xalqning ma'rifiy darajasini ko'tarish, unga erk berish, hayotini farovonlashtirish singari masalalar hukmdorlarni mutlaqo bezovta qilmas, ular mavjud turmush tarzini o'zgartirishni o'ylamasdilar ham. Buning o'rniga har uch xonlik ham o'z chegaralarini qo'shnisi hisobiga kengaytirish, „begona mamlakat“ni talash yo'li bilan xazinani to'ldirish payida edi.

Ulug' maqsadning yo'qligi, oqibatsizlik, toro'ylik, bugunning manfaati bilangina yashash hukmdorlarni oyoqning tagidan narini ko'rolmaydigan holatga keltirib qo'ygandi. Shu holiga har bir xon o'zini yer yuzidagi eng qudratli hukmdorlardan deb bilar, qo'shnisiga qanday yashashni o'rgatib qo'yish da'vosida yurardi. Turkiston hukmdorlari o'rtasidagi bu kayfiyat bosqinchi mam-lakatlarga juda qo'l keldi. Shulardan eng yirigi, va „dunyo jandar-meriyasi“ nomini olgani, bosqinchilikda chegara bilmaydigan chor Rossiyasi o'z imperiyachilik maqsadlari yo'lida bir zamonlar shonli saltanatlar qurib, dunyo so'ragan turkistonlik hukmdorlarning ayni vaqtdagi holatidan ustalik bilan foydalandi. Rossiya siyosatchilari va ularning o'zimizdagi hamtovoqlari xonliklar orasiga kelishmov-chiliklar solib, ularni bir-birlariga qarshi gij-gijlab, yovlashtirdi. Xonliklar o'rtasidagi oqibatsizlik, boshboshdoqlik rus bosqinchilari-ga ularni birma-bir o'ziga bo'ysundirish imkonini berdi.

Dunyodagi ko'pchilik xalqlarda millat tuyg'usi qaror topayotgan, muayyan millat shaklida bo'lishgina xalqqa tarixda o'z o'rniga egalik qilish imkonini berishi oydinlashgan bir sharoitda turkistonlik hukmdorlar o'rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy o'lchovlar bilan ish ko'rishdi. Ular zamon zaylini, davr talabini, kun sayin o'zgarib borayotgan sharoitni hisobga ola bilmadilar. Ma'rifatsizlik tufayli mavjud idora usuli isloh qilinmadi, boshqarish usullari davrga moslashtirilmadi. Turkistonlik xonlar bugunda turgani holda kechaning havosi bilan nafas olishda davom etdilar. Shuning uchun ham umumiy dushman bo'lmish Rossiya lashkari Turkiston o'lkasini bosib ola boshlagan vaqtda Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi bir

yoqadan bosh chiqarish o'rniga, bir-biri bilan qirpichoq bo'lishdi. Ruslar Qo'qon xonligiga tegishli yerlarga bosqinchilik qilganda, qo'qonliklarning g'ayridinlarga qarshi jangga otlanganidan foydalangan Buxoro amiri bu mamlakatga urush ochdi. Natijada, Qo'qon xoni o'z askarlarini ortga qaytarishga majbur bo'ldi. Keyinchalik, chor Rossiyasi qo'shinlari Buxoro amirligi lashkar-larini yanchib tashlaganda, bosqinchilardan zarba yeb, o'ziga kelol-mayotgan Qo'qon, tabiiyki, unga yordam berolmadi. Shu tariqa, 1868- yilda Buxoro amirligi, 1873- yilda Xiva xonligi Rossiya podshosining vassaliga aylantirildi. Qo'qon xonligi esa 1876- yilda tamomila tugatilib, lining hududi chor Rossiyasiga tegishli Turkiston general-gubernatorligi deb ataladigan bo'ldi.

Umummilliy miqyosdagi ma'rifatsizlik hukmdorlar tafakkuri jo'nligiga, ulardagi johillik xonliklar idora usulining qoloqligiga olib keldi. Turkistonlik hukmdorlar XIX asrning ikkinchi yarmiga kelganda ham mamlakatni boshqarish, odamlarga yetakchilik qilish bundan yuzlab yillar oldingi kabi bo'lolmasligini anglab yetmadilar. Odamlar endilikda taqdirning irodasini kutib turguvchilar emas, balki o'z tarixining yaratuvchilariga aylanganliklarini tushunol-madilar. Tarixda xalqning rutbasi yuksalganligini payqamaslik, odamlarni harakatlantiradigan tashabbus, intilish, e'tiqod, maqsad singari ma'naviy omillar borligini ko'rmaslik Turkiston taraqqiyotini necha yuz yillarga ortga tortdi. Hukmdorlar xalqqa hamon cho'pon haydovida yurishi kerak bo'lgan qo'ylar podasi, deb qarashda davom etdilar. Holbuki, xalq o'z tafakkuri rivojining shunday bosqichiga kelib yetgandiki, endi ongsizlarcha osoyishta yashash martabasi uni shodmon qilolmasdi.

To'g'ri, Turkistonda ham dunyodagi o'zga mamlakatlardagi kabi yashash uchun turmush yo'sinida qandaydir o'zgarishlar qilish lozimligini biladigan ilg'or fikrli kishilar bor edi. Ammo sog'lom fikr bor kishida imkoniyat, imkoniyatga ega kimsada sog'lom aql, har ikkalasi mavjud bo'lgan odamda esa jur'at yetishmasdi. Bularning hammasini o'zida mujassamlashtirgan kuchli daho esa tarix sahnasiga chiqmadi. Bizda azaldan yangilik birmuncha sekin

joriy etiladi. Chunki bizning ajdodlarimiz minglab yillar mobaynida saltanat surgan, yuksak madaniyat yaratgan, necha asrlar davomida shakllangan an'analarga

og'ishmay amal qilib kelgani tufayli dunyoda dovruq qozongan edilar. Necha buyuk sinovlardan o'tgan' an'analarni o'zgartirishga urinish shakkoklikday ko'rinardi. Ammo endi davr boshqacha edi.

Turmush tarzini tubdan isloh qilmay turib, davr bilan teng yurish mumkin emasdi. Davr bilan hamnafas bo'lolmagan millat tanazzulga mahkum edi. Turkistonda ma'rifatsizlik avj olganligi, nobop ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yuzaga kelganligi, savdo-sotiqning eski karvon usuli o'rniga, asosan, suv va temiryo'l orqali amalga oshirilishi dunyo okeaniga qo'shilmagan o'lkaning dunyodagi mutaraqqi davlatlardan ortda qolishiga sabab bo'ldi. Natijada, ishlab chiqarishni takomillashtirish, mehnat unumdorligini oshi-rish, xalq xo'jaligiga texnikani joriy qilish qiyinlashdi. Bu hoi iqtisodiy qoloqlikni keltirib chiqardi. Iqtisodiy rivojlanmagan mamlakat esa ham ma'rifiy, ham harbiy jihatdan o'zgalardan ortda qolishi tabiiydir. Ilm-fan va iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan bo'lsa ham, mamlakat ahlining jangariligi, dovyurakligi, harbiy salohiyatining yuksakligi tufayligina qudratli bo'lishi mumkin bo'lgan davrlar o'tib ketgandi. Endi askarlar emas, harbiy texnika, qurol-aslaha jang taqdirini hal qilardi. Mana shu sharoitda Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasidagi ayrim xonliklarning yerlarini bosib olishga, boshqalarini esa vassalga aylantirishga muvaffaq bo'ldi.

Chor Rossiyasi bosqini natijasida o'lkamiz ahli tortadigan azob bir necha hissaga ortdi. Yurtimizda olib borilgan siyosatning har bir ko'rinishida mustamlakachilik nuqsi ko'zga tashlanib turardi. Azaldan erksevar xalqimiz bu qismatga ko'nikib qo'ya qolmadi. 1892-yilda Toshkentda, 1898-yilda Andijonda, 1916-yildaesabirvaraka-yiga Turkistonning bir qancha joylarida bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar xalqning ana shu adolatsiz va zo'ravon siyosatga qarshi isyoni edi.

Chor Rossiyasi Turkistonni zabt etgach, o'z hukmronligini mustahkamlash, qudratini oshirish uchun zamonaviy fan-texnika yutuqlarini bu yerda ham joriy eta boshladi. Albatta, o'lkaga zamonaviy texnikaning kirib kelishini faqat Rossiyaga bog'lab qo'yish to'g'ri emas. Chunki XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran Yevropadagi texnik yangiliklar sekinlik bilan bo'lsa-da, o'zga yo'llar orqali ham Turkistonga kirib kelishi muqarrar edi. Ammo chor Rossiyasining hukmronligi bu

jarayonni bir qadar tez-latganligidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Ayniqsa, XIX asrning 70-yillarida o'lkamizga kitob bosish, gazeta-jurnal chop etish usulining kirib kelishi dunyo ahli bilan axborot almashishni ancha oson-lashtirdi. Turkistonliklarni jahon ahliga yaqinlashtirdi. Ibtidoiy ko'rinishda bo'lsa-da, Turkistonda sanoat korxonalarining paydo bo'lishi, xalq hayotiga texnikaning kirib kelishi millat ijtimoiy tafakkuriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan ikki buyuk shoir — Muhammadniyoz Nishotiy va Muhammad Sharif Gulxaniylar ijodi mumtoz adabiyotimiz tarixida alohida ajralib turadi. Nishotiyning xalq og'zaki ijodi asosida yaratgan, «Husnu dil» dostoni ishq-muxabbat, aql-farosat, axloq`odobga bag'ishlangandir. Shu narsa diqqatga loyiqki, dostonida har biri mustaqil asar bo'la oladigan «Shoxboz va bulbul», «Gul va Daf», «Nay va Shamshod», «Kosai Chin va Nargis», «Binafsha va Chang» kabi masallar ham berilgan. Bu masallarning barchasida el-yurtga foyda keltirish, maqtanchoq bo'lmaslik, ortiqcha kibr-havoning zarari yoritilishi bolalar uchun har jihatdan iboratlidir.

Ayniqsa, maroqli, o'qishli qilib yozilgan kitoblarga ishtiyoq zo'r. Bunday kitoblar mavzusi muhimligi, tilining jonli, ravon varavshanligi bilan ajralib turadi. Bolalar saviyasining o'sishida, shu jumladan, kitobxonlikka berilib ketishida, albatta, o'qituvchilarning badiiy didi katta ahamiyatga ega. Shunday ustozlarni bilamizki, ular "Kitob foydali, kitobni ko'proq o'qinglar!" deb ortiqcha nasihat qilib o'tirishmaydi, buning o'rniga dars soatlarida ham, darsdan tashqari vaqtlarida ham kitobni qo'llaridan qo'ymay mutolaa qilishadi. O'qigan kitoblarining mazmun-ma'nosini maroqli qilib aytib berish orqali bolalarda havas uyg'otishadi. O'qilganlarni shunchaki yodlamasdan, uning mag'zini chaqishga, mustaqil muhokama yurita olishga o'rgatishadi.

Jahonda jamiyat qonuniyatlari, tabiat sirisridan hikoya qiluvchi asarlarni sevib, ularni maroq bilan o'qib, bilimini oshirgan shaxslar ko'p. Ayniqsa, hayotga endigina qadam qo'yib kelayotgan yoshlar uchun quvnoq davrimizni, baxtiyor bolalikda o'tadigan jozibali damlarni tasvirlovchi kitoblar nihoyatda zarur. Bunday

asarlarni yoshlarning eng yaqin suhbatdosh do'stlari, maslahatgo'ylari bo'lgan yozuvchilar yaratayotganlari sir emas.

Adabiyotga, kitobga muhabbat qo'yishning o'zida hikmat bor. Avvalo, kitob hayotda odamga kaatta yo'lni topib olishga ko'maklashadi. Yaxshi bilan yomonni ajratish, milliy qadriyatlarimiz – ajdodlarimiz qoldirgan boy meroslarga hurmat hissini uyg'otib, yoshlarning ongini yuksaltirishga yo'l ochadi.

Oldingi boblarda ko'rib o'tganimiz xalq og'zaki ijodi tajribalari yozma adabiyotning maydonga kelishi va rivojlanishida boy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu yerda yana bir narsani ta'kidlab o'tish kerakki, badiiy adabiyotning taraqqiyoti jamiyatining umumiy tarqqiyoti bilan ham uzviy borliqdir. Bu jihatdan Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarini eslab o'tish o'rinlidir. XI asrning buyuk tilshunos olimi o'zining bu kitobida bizga ko'p ma'lumotlar beradi. Unda avvalgi zamonlarda paydo bo'lib, o'g'izdan-og'izga, avloddan-avlodga ko'chib yurgan qo'shiq va lirik she'rlardan namunalar ham keltirilgan. Kitobda, ayniqsa, mehnat, qahrqmonlik, marosim, mavsum qo'shiqlari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Gulxaniy ham «Zarbulmasal» asarida o'zining muhim ijtimoiy qarashlarini, el-ulus taqdiriga munosabatini sezilarli masallar orqali ifodaladi.

Munis mehnatkash xalqning og'ir ahvoliga qattiq achindi, ilm-fan va adabiyot ahlining xor-zorligidan qayg'urdi. Shoir kishilarni bilim olishga, kitob o'qishga, johil va yomonlardan uzoq bo'lishga chaqirdi. Munis «Savodi ta'lim» risolasi orqali bolalarni o'qitish va tarbiyalash ishiga katta hissa qo'shdi. Uning ma'rifatparvarlik g'oyalari o'zidan keyin yashagan Muqimiy; Furqat, Zavqiy, Avaz Utar kabi shoirlar ijodiga ham katta ta'sir kursatdi.

Xullas, bolalar adabiyotining mavzu doirasi kengaya bordi. Yoshlik, maktab hayoti, ona-yurt tabiati, xalqlar do'stligi, ilm, hunar va texnikaga muhabbat mavzulari bolalar adabiyotidan keng o'rin oldi.

I.2.XIX asrning boshlarida yashagan A.Avloniy, bolalar adabiyotiga qo'shgan hissasi.

O'zbek madaniyatining ulkan vakillaridan biri, murabbiy, jamoat arbobi va yozuvchi Abdulla Avloniy 1878-yilda Toshkent shahrida to'quvchi oilasida dunyoga keldi.

U boshlang'ich diniy maktabda va madrasada o'qidi, ilm-fanga ixlos qo'ydi. O'zbek va boshqa Sharq xalqlari adabiyotini berilib o'rgandi. Abdulla Avloniy 14 yoshidan she'rlar yozishni mashq qila boshladi. Uning ilk she'rlari o'sha davr vaqtli matbuot sahifalarida bosilib turdi.

Abdulla Avloniy xalqni ilm-fan nurlaridan bahramand qilishni o'zining fuqarolik burchi deb biladi va 1904- yilda o'z mahallasi Mirobodda maktab ochadi. Shoirning qo'lidan duradgorlik ishlari ham kelar edi. U yozuv taxtasi, parta yasab, barcha o'quv jihozlarini o'zgartiradi. Bu yerda o'qiydigan bolalarning ko'pchiligini kambag'al bolalar tashkil etganligi sababli u boy-badavlat do'stlarining ko'magida „Jamiyati xayriya" tashkil etadi. Bu jaraiyat orqali bolalarni bepul kiyim-bosh, oziq-ovqat, daftar, qalam bilan ta'minlaydi.

Avloniy ochgan maktabning shuhrati tobora ortib, o'quv-chilarning soni ko'paya boradi.

Adib o'z maktabida bolalar diqqatini asosiy fanlarga jalb etib, tezda ularning savodini chiqarishga va shundan so'ng aniq fanlarni o'qitishga harakat qildi. U bolalarga jug'rofiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat (fizika) kabi fanlardan ma'lumotlar beradi.

Muallimlik qilish bilan birga u jamoat ishlarida ham faol ishtirok etadi.

1907-yilda „Shuhrat" gazetasini tashkil etadi. Uning sahifalarida mehnatkash xalq manfaatlarini himoya qilishga doir

fikrlar keng yoritiladi. Jumladan, gazetaning birinchi sonida: „Matbuot har insonga o'z holini ko'rsatuvchi, ahvol olamdan xabar beruvchi, qorong'i kunlarni yorituvchi, xalq orasida fikr tarqatuvchi, ilm, ittifoq, hikmat g'oyalarini yoyuvchi-dir", deb yozgan edi.

Abdulla Avloniy „Adabiyot yoxud milliy she'rlar" deb nomlangan to'rt qismdan iborat darsligida bolalarni ma'rifatga, madaniyatga chorlaydi, yaramas xulq-odatlarni esa tanqid qiladi.

O'sha davr xalq pedagogikasida Abdulla Avloniyning „Birinchi muallim" — „Alifbe", „Ikkinchi muallim" — „O'qish" kitoblari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ularda Avloniy mumtoz adabiyotimizdagi eng yaxshi an'analarni davom ettirdi, ilm va ma'rifatning ahamiyatini yangicha talqin etdi. „Birinchi muallim" — „Alifbe", „Ikkinchi muallim" — „O'qish" kitobi rolini bajardi.

„Birinchi muallim"da Avloniy dastawal 32 harfning alohida yoziladigan shakllarini alifbo tartibida bergan. Shu sahifada alifning so'z boshida, o'rtasida va oxirida qanday yozilishini ko'rsatgan, so'ng alifni barcha „bosh harflar"ga qo'shib, bo'g'inlar hosil qilgan.

„Ikkinchi muallim"da axloq-odobga, halollik va poklikka oid turli she'r, hikoya, masal va ertaklarni jamlab, rang-barang majoziy obrazlardan ustalik bilan foydalangan.

Kitob „Maktab" she'ri bilan boshlanadi. Unda kimki maktabda o'qisa, savodxon bo'lsa, juda ko'p narsalarga erisha olishi chiroyli misralarda ifodalanadi:

Maktab dur-u gavhar sochar,
Maktab sizga jannat ochar,
Maktab jaholatdan qochar,
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!
Maktab sizni inson qilur,
Maktab hayo ehson qilur,
Maktab g'ami vayron qilur,
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!..

Darslikda shunga o'xshash ibratomuz she'r, hikoya va ertaklar ham bir talay.

Abdulla Avloniy 1904-yildan umrining oxirigacha muallim-lik qildi. Shuningdek, o'nlab she'rlari, „Maktab gulistoni", „Turkiy guliston yoxud axloq" kabi darsliklari bilan o'zbek bolalar adabiyotiga poydevor qo'ydi. „Turkiy guliston"da Abdulla Avloniy o'zining ijtimoiy va axloqiy qarashlarini yoritadi.

Asarning so'zboshisida muallif bu haqda shunday yozadi: „Men bu asarimni maktablarimizning yuqori sinflarida ta'lim bermak ila barobar ulug' adabiypt muhoblari — axloq havaskorlarining e'tiborlariga taqdim qildim".

Darslikdagi bar bir bo'lim ta'lim-tarbiyaning muhim bir masalasiga bag'ishlangan bo'lib, ularning biri ikkinchisini to'ldiradi, takomillashtiradi. Har bir bo'limda kichik hajmli, ibratli hikoyalar berilib, asar oxirida she'riy parchalar yoki hikmatli so'zlar orqali „qissadan hissa" chiqariladi. Yozuvchi bu asarida xalq og'zaki ijodidan keng foydalangan.

Abdulla Avloniyning „Bahor keldi", „Bulbul", „Bola ila gul", „Yolg'onchi cho'pon", „Tulki ila qarg'a" kabi she'rlari kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan.

Abdulla Avloniy „Advokatlik osonmi?", „Pinak", „Biz va siz" kabi pyesalari bilan drama janrini boyitdi.

YAMONOTLIQ JAZOSI

Bir kishining Qosim ismli o'g'li bor edi. Ota va onasining so'zig'a kirmasdan har xil yomon ishlarni qilur edi. Bolalar birla urushub, yaqolashub, kiyimlarini yirtib kelur erdi. Uyda onasi mehmon uchun asrab qo'ygan taomlarini yegon vaqtda, onasi: „Qosim, o'g'lim! Taomni sen yedingmu?" desa, „Men yegonim yo'q, mushuk yegondur", der edi. Bora-bora otasining pulini ham o'g'urlab oladurg'on bo'ldi. Otasi bilib: „O'g'lim, pulni kim oldi?" desa, „Onam olgandur", deb onasini o'g'ri qilur edi. Bir kuni otasi ustol ustig'a bir tanga pul qo'yub, o'zi uxlagan kishi bo'lub yotdi. Qosim kelub, sekin tangani olib og'ziga soldi. Shul vaqt otasi ushlab olmoqchi bo'lg'onda tangani yutub yubordi. Tanga borub Qosimning halqumiga tiqilib, jon berdi.

Ey bolalar! Ko'rdingizmi, yamonning yamonligi o'z bo-shiga yetdi.

ILM

Ilm deb o'qumak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o'rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati... Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilur.

Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur. To'g'ri yo'lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas'ul bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur... limning foydasi shu qadar ko'pdirki, ta'rif qilg'on birla ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni ilm jaholat qorong'ulig'idan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yamon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur...

Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur...

Ilm bir daryo, ichi to'lmush dur-u gavhar bilan, Qiymat-u qadrin qachon bilg'ay ani johil ilan.

VIJDON

Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurg'on his-siyot, ya'ni sezuv tuymakdan iborat ma'naviy quwatni aytilur. Biz har vaqt af ol va harakatimizning yaxshi va yomonlig'ini, foyda va zararlig'ini vijdonimiz ila bilurmiz. Vijdon insonning aql va fikrining haqiqiy mezonidurki, bu tarozu ila o'z kamchiliklarini o'lchab bilmak ila barobar, boshqalarning ham afol va harakatini sezur. Agar ishlag'on ishi shariat, aql va hikmatga muvofiq bo'lsa, muhabbat qilur. Qabohat va yomon ishlarni qilsa, nafrat qilur...

Vijdon yaxshi xulqlarning manbayi o'ldig'indan vijdon sohiblari har bir ishni beg'araz, xolis niyat ila ishlar. Shul sababli har kim nazarida maqbul va suyukli bo'lur.

Ammo vijdonsiz kishilarning ishlarida, niyat va amallarida, do'st va oshnoliqlarida yoshirin bir g'arazlari o'ldig'indan har vaqt hasrat va nadomat chekub, vijdon azobiga giriftor bo'lurlar.

Alhosil, vijdon har kimning afol va harakatini ko'rsata-durg'on musaffo bir oynadurki, bu ko'zgiga chin nazar qilg'on kishi o'z ayb-u kamchiliklarini tuzatmak harakatida bo'lub, boshqalarning ayb va qusurlarini oxtarmoqg'a vaqti bo'lmas...

Arastu hakim: „Ruhimizning ma'naviy quvvati o'lan vijdonimiz, fikrimizga quwat berguvchi bir vositayi idrokiya" deyur. Ya'ni hissiyotimizning ruhimizga ta'sir ettiruvchi bir robitayi elektriqiyasidur, demish.

Ijtimoiy hayotning o'zgarganligi, odam martabasining ko'taril-ganligi, unga o'z boshiga tushgan qismatni kechirishi lozim bo'lgan mavjudotgina deb qarashdan tarixning yaratuvchisi, hayotning harakatlantiruvchisi ekanini tan olishga o'tilganligi millat ijtimoiy tafakkuriga keskin ta'sir ko'rsatdi. Endilikda olamni islomiy ko'rish, dunyo hodisalarini islomiy tushunish va izohlash bilan birga, o'zgacha qarash va e'tiqodlar ham bo'lishi mumkinligi anglab yetildi[^] Bu hoi milliy ongdagi yakranglikning buzilishiga olib keldi. Olam hodisalarini turlicha tushunish va tushuntirish mumkin degan qanoat kishilarda fikr hurligini uyg'otdi. Aloqalar, axborotlar umumiylikining yuzaga kelishi natijasida millat tafakkuriga tashqi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu hoi tasodif bo'lmay, ijtimoiy fikr taraqqiyotining obyektiv natijasi edi. Shu tariqa, Turkiston o'z tarixining yangi bosqichiga kirdi.

Ijtimoiy ongning yangilanishi badiiy tafakkurning ham yan-gilanishiga olib keldi. Ijodkorlar orasida badiiyatga, san'at asarlariga „lisoni g'ayb" yoxud „ilohning tajallisi" tarzida qarash bilan birga, uni „mimesis" (taqlid)ning oqibati yoki ijtimoiy-siyosiy dardni ifodalash vositasi, deb tushunish ham yoyildi[^]Shu tariqa, san'at hodisalarini bo'lakcha yaratish, tushunish, ta'sirlanish va tahlil qilish an'anasi yuzaga kela boshladi. Kitob sanoatining paydo bo'lishi, vaqtli matbuot orqali axborotlarni tez va keng miqyosda yoyish imkoni oshganligi munosabati bilan badiiy adabiyot ta'sirchan ijodkorning ko'ngil ishidan kuyunchak ziyolining ijtimoiy faoliyatiga aylana bordi.^{<^}Endilikda adiblarimiz avvalgi davrlardagi singari ilohiy yoxud dunyoviy ishqni tarannum etishning o'zi bilan kifoyalana olmay qoldilar. Ular badiiy so'zning arshi a'losidan zaminga tushib, qora yerdagi muammolar haqida qalam sura boshladilar.

Odamning martabasi ko'tarilar ekan, uning turmushi ham mavqeyiga yarasha bo'lishi uchun ochiq fikrli kishilar kurashishlari lozimligi anglab yetildi. Shuning uchun ham Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz singari shoirlar ijodida „Aroba", „Pech", „Saylov", „Veksel", „Til", „Gimnaziya xususida", „Vistavka xususida" singari asarlar paydo bo'ldi. Avvalgi vaqtlarda shoirlar bu xil sof maishiy mavzularni qalamga olmasdilar. Ular muhabbat mavzusining biror qirasi

munosabati bilangina tilga olinishlari mumkin edi. Shuningdek, bu davrga kelib, o'zbek adabiyotida publitsistik yo'nalish paydo bo'lib, kuchayib bordi. Xullas, mana shu singari jihatlar yangi davrning **yangi adabiyoti** yuzaga kelganligidan dalolat bo'ldi. Chunki o'zbek adabiyoti minglab yillar mobaynida amal qilib kelgan yo'nalish o'zgargan edi. U ijod osmonidan tirikchilik yeriga tushdi, saroydan kulbalarga kirib keldi. Endi adabiyot azbaroyi san'atning o'zi uchun, so'zning go'zal jilvalanishini ko'rish va ko'rsatish uchun mavjud bo'la olmasdi. Bu adabiyot **yangi** davrning xususiyatlarini o'zida aks ettirgan **yangi adabiyot** edi.

Shuning uchun ham XIX asrning yetmishinchi yillaridan boshlab o'zbek adabiyotida ilk bor asrlar mobaynida amal qilib kelingan estetik an'analar buzildi. Badiiy ijod Alloh bilan sirlashish, ruhiyat nozikliklarini aks ettirish, komil inson fidoyiliklarini ulug'lash, ma'shuqaning azoblaridan yozg'irish, illatli kimsaning kirdikor-larini tanqid qilishdangina iborat emasligi anglab yetildi. Alloh bilan ijodkor shaxs muloqoti ifodasi bo'lgan adabiyot avomning tirikchiligiga aralasha boshladi. Bu hoi uning tabiatida ham bir qator o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

Alohida estetik hodisa sifatida XIX asrning 60- yillaridan e'tiboran paydo bo'lgan yangi o'zbek adabiyoti hozirgacha bo'lgan vaqt mobaynida o'z taraqqiyotining quyidagi bosqichlarini bosib o'tdi:

- a) *ma'rifatchilik adabiyoti*;
- b) *jadid adabiyoti*;
- d) *sho'rolar adabiyoti*;
- e) *mustaqillik davri adabiyoti*.

Bu bosqichlarning har birida yangi o'zbek adabiyoti o'ziga xos sifat va xususiyatlarga ega bo'lgan. Ushbu darslikda o'rni bilan har bir bosqichning alohida belgilari haqida tegishli ma'lumotlar berib boriladi.

uzoq bo'lishga chaqirdi. Munis „Savodi ta'lim" risolasi orqali bolalarni o'qitish va tarbiyalash ishiga katta hissa qo'shdi. Uning ma'rifatparvarlik g'oyalari Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Komil, Zavqiy, Avaz O'tar kabi shoirlarga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Ma'rifatparvarlikni bayroq qilib ko'targan Abdulla Avloniy, Behbudiy, Hamza, Fitrat, Munawarqorilar tomonidan yozil-gan darslik va qo'llanmalarda bolalar hayoti, o'qishi, axloq-odobi haqida materiallar beriladi.

Abdulla Avloniy („Birinchii muallim", „Ikkinchi muallim", „Maktab gulistoni", „Turkiy guliston yoxud axloq"), Hamza Hakimzoda Niyozii („Yengil adabiiyot", „Axloq hikoyalari", „Qiroat kitobi") asarlarida yangi davr nafasi ufura boshladi.

20-yillarda Fitrat, Cho'lpon, Elbek, Botu, G'afur G'ulom, G'ayratii, Shokir Sulaymon, Oybek va boshqalar kichkintoy-lar uchun yozgan asarlarida bolalarni yaxshi o'qishga, ilm-fan nurlaridan bahramand bo'lib, davrning haqiqiiy o'g'il-qizlari sifatida kamol topishga targ'ib etdilar.

Hamza Hakimzoda Niyozii 1889-yilda Qo'qon shahrida tabib oilasida tavallud topdi. Uning pedagogik faoliyati 1911-yildan boshlandi. U dastlab Qo'qon shahrining Hojibek guzarida kambag'allarning farzandlari va yetim-yesir bolalar uchun maktab ochdi.

Hamza mehnatkash xalq ommasi va uning bolalarini o'qitish va tarbiyalash maqsadida, ularni moddiiy jihatdan ta'minlashni nazarda tutib "Yordam jamiyati" tashkil qildi. Shu jamiyat orqali u o'quvqhilarni o'quv qurollari, kiyim-kechak va oziq-ovqat bilan ta'minlab turdi.

1914-yilda jahon urushining boshlanishi Turkiston boshiga tushgan balo bo'ladi. Urush ta'sirida mehnatkash xalq yanada qashshoqlashadi, bolalar nihoyatda ayanchli ahvolda qoladilar. Bu hoi Hamzaga ta'sir qiladi. Shoir ularning og'ir ahvolini ifodalovchi she'r va maqolalari bilan matbuotda muntazam ravishda qatnashib turadi. Hamza 1914-yilda "Sadoyi Turkiston" ro'znomasida bosilgan she'rida xalq ahvolini shunday ta'riflaydi:

... Kambag'allar titrashib yurgay yalang 'och izg'ushub,
Oh, bufaqir-u asorat onlara sayyoddir,
Dil shikasta, bag'ri xun, ko'zida yosh shashqator,
Otasiz, baxtsiz yetimlar holigafaryoddir.

Shunday sharoitda Hamza "bir iloj qilib kambag'al bolalarni aqchasiz...

tarbiya va o'quvga boshlarini band qilmoq" choralarini izlaydi, she'r va maqolalarida bolalarni o'qishga chaqiradi. Bu g'oyani Hamza "O'qi" she'rida bayon etadi. O'sha yili u yetim va kambag'al bolalar uchun "Doril yetim" (Yetimlar maktabi)ni ochadi va o'zi o'qituvchilik qiladi. Hamza birinchi sinf o'quvchilari uchun "Yengil adabiyot", 2-sinf uchun "Axloq hikoyalari" o'qish kitoblarini tuzadi. Hamza 1915-yilda Marg'ilonga borib, kambag'al bolalari uchun maktab ochadi. 1918-yilda Farg'onaga borib o'qituvchilikni davom ettiradi va u yerda yosh san'atkor-ixlosmandlarni to'plab, "Sayyor dram truppa" tashkil qiladi. 1919-yilning boshlarida Hamza Qo'qondagi 1-boquvsiz bolalar uyiga mudir qilib tayinlanadi. Bu yerda u uch sinfli maktab ochib, o'zi o'qituvchilik qiladi. 1922-1924-yillarda shoir Qoraqalpog'istonning Xo'jayli tumanidagi 1-bolalar uyi mudiri va o'qituvchisi bo'lib ishlaydi. 1925-yilda esa Farg'onaning Avval qishlog'iga o'qituvchi qilib tayinlanadi va g'oyat og'ir sharoitda ishlaydi. Ayni vaqtda u xalqni yangi zamon qurilishi tomon chaqiruvchi ijodini davom ettiradi. Shoir 1928-1929-yillarda Shohimardonga borib o'qituvchilik qiladi.

Hamzaning tarbiyachilik faoliyatini uning shu mavzuda yozgan asarlari yanada to'ldiradi. Uning ilm va tarbiyaviy mavzuda yaratgan "Ilm ista", "Maktab", "Kitob", "O'qi", "Qalam", "Hikoya", "To'g'riso'z bola", "Hikoyat", "Toshbaqa va Chayon", "Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi" kabi she'rlari xarakterlidir. Bu asarlar shoirning 1914-yilgacha bo'lgan ijodidan namuna sifatida tahsinga loyiqdir.

Hamza xalqni o'qitish, savodxon qilish uchun tinimsiz intiladi va kurashadi maktablar uchun darslik va qo'llanmalar yozishni o'ziga maqsad qilib oladi. Hamza yozgan darsliklar uning o'sha davrdagi dunyoqarashi, badiiy ijodi, bolalar adabiyotini tushunishi haqida ko'pgina ma'lumot beradi. Bu g'oya "Yengil adabiyot"da o'z aksini topgan.

Muallim-olimning bu kitobidan munosib o'rin olgan "Maktab xususida" asari alohida ajralib turadi. U bu she'rda maktabni millatning quyoshiga, guli va bog'iga o'xshatib ta'riflaydi:

Maktab millat quyoshi,

Balki ko 'z ila qoshi.
Ko 'zsiz, qoshsiz kishining
'Qanday xnnukdir boshi. t
Maktab millat saroyi,
Ilm-u adabning joyi.
Dunyoda eng saodat
Axtarganlarningjoyi.
Maktab millatning guli,
Millat aning bulbuli.
Maktabsiz qolgan millat
Boshqa chamanning quli...

"Birinci sinf bolasining so'zi" she'rida shoir o'sha quyoshga, nurga, gulga, baxtga intilgan o'quvchining yozuv va chizuvini o'rganib olib baxtga erishayotganligini uning nomidan quyidagi misralarda bayon qiladi:

Mening o 'qub, yozganim,
Oltin, kumush qazganim,
Tilak sari uchuvga
Go 'yo qanot yozganim.

Hamza xuddi shu darslikdan o'rin olgan "To'g'ri so'zla" she'rida har qanday holatda ham, hatto boshingga qilich kelganda ham to'g'ri so'z bo'l, deb o'z o'quvchisini, yosh kitobxonni to'g'riso'z bo'lishga undaydi:

To 'g 'ri so 'zla, ey o 'g 'ul,
Til burmag 'il yolg 'onga hech.
Bir masal bor: to 'g 'riso 'zlar
Boshini kesmas qilich.

Hamzaning, "Yengil adabiyot"ga kiritgan she'rlaridagi bosh qahramonlarning belgili xususiyatlaridap biri,— to'g'ri so'zlik. Shoir bolalarni to'g'ri va rostgo'y boiishga, zararli va foydasiz ishlardan qochib, ijobiy ishlar bilan shug'ullanishga, kishilarning yaxshi sifatlaridan ibrat olishga chaqirgan. "To'g'ri so'z bola" she'rida bu fikr yanada jonli chiqqanini ko'ramiz. Hamza bu she'rida

barcha narsa pul va boylik bilan olchangan jamiyatda hamma narsadan ko'ra haqiqatni ustun qo'ygan ijobiy qahramon bola obrazini yaratadi.

Bir bola o'qishdan qaytayotganida ikki kishi uning oldini to'sib, biri dedi:

«Tanga berurman senga, so 'zla birozgina yolg 'on menga». Shunda bola unga juda donolik bilan javob beradi:

So 'zlang, ako, qomatingizga qarab,

Bu so 'zingiz aslida yolg 'on erur,

Tangaga yolg 'onni kirn olgan erur,

Sizda ko 'p ekan o 'zi yolg 'on, ako,

Siz oni avval sotib aylang ado.

Oolsa kamib, yetmay agar sizdanam,

O 'rtog 'ingizda ko 'p erur bizdanam.

Ofarin aytdilar oning so 'ziga

Tangani xolis berubon o 'ziga.

Mssa: kimki to 'g 'ri so 'zi har qachon,

Tekizadir. doimiy bo 'yla hison.

Hamza bu she'rida bolalarni yoshligidanoq rostgo'ylik ruhida tarbiyalash lozimligini uqtiradi, ularni yolg'onchilik va aldamchilikdan uzoqroq yurishga chaqiradi.

Shu kitobda "Qimorning boshi" degan bir she'r bor. Unda shoir Hoshimjon degan bolaning ayanchli qismatidan to'g'ri xulosa chiqarishga chaqiradi. Hoshimjonning "To'ptosh", "Juftmi-toq" degan o'yinlarni o'ynashdan asta-sekin qimor o'ynashga o'rganganini, bora-bora qimorga mukkasidan ketib, oxiri bor-yo'g'ini qimorga boy berganini, nihoyat uning qoloqlikka tushib, xorlikda o'lib ketganini ifoda etadi.

"O'qish kitobi" Hamzaning ikkinchi darsligidir. Unda to'qqizta dars bo'lib, ularning har biri axloqiy masalaga bag'ishlangan. Barcha hikoyalarning qahramoni ijobiy fazilatlarni o'zida mujassamlantirgan maktab o'quvchisidir. "Bir aqlli maktab bolasining o'z-o'zicha domlasining qilgan tarbiyalari yodiga tushib, fikrlanib, degan so'zlari" sarlavhali ikkinchi darsda bolaning nutq-ta'rifi vositasida ustoz obrazi chiziladi. Hamza o'zi orzu qilgan o'qituvchini bola tilidan bunday ta'riflaydi:

O 'yla.sak, biznierurlar chin otamiz shul kishi,
Chunki bizga bilmaganni bildirar ustodimiz...
Ota birlan onamizdan yaxshiroq shafqat qilib,
Bizdagi har kamchilikni ko 'rsatur ustodimiz...
Asta-asta bizda bo 'Igan har yomon, shumfe 'Ini,
Har kuni aylab nasihat, yo 'qotur ustodimiz.

Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash ishiga Hamza alohida ahamiyat beradi. Odamlarga mehr-u muhabbat qo'yish, kishilarning qadr-qimmatiga yetish, ularni hurmat qilib, izzat-ikrom bilan muomala qilish yoshlardagi insonparvarlikning asosidir. Yoshlarni bunday ruhda tarbiyalash, dastavval, bolalarning eng yaqin kishilariga ayniqsa, ota-onasiga nisbatan muhabbat tuyg'ularini rivojlantirishdan boshlanishi kerak. Shoir ota-onani hurmat qilishni bolaning eng yuksak insoniy fazilatlaridan biri deb hisoblaydi. "Ul aqllik otasini ham qilgan tarbiya va shafqatlarini yot etib degan so'zi" sarlavhali uchinchi va "Ul aqllik bolaning mushfiqa enasi uchinda qilgan tashakkurlari" nomli to'rtinchi darslarida ota-onalar qiyofasi chiziladi.

Hamza kitobda otaning lirik obrazini chizarkan, uning amri xalq amridan ham' kuchli, deb ta'riflaydi. Onani esa "otamizdan ham muqaddas onamiz" tarzida ulug'laydi. Ayni choqda, ota-onaning bola tarbiyasi uchun mas'ul ekanligi ta'kidlanadi.

"O'qish kitobi"dagi bir necha she'rlar o'qish, ilm olish, maktab hamda kitobning ta'rifiga bag'ishlanadi. Jumladan, "O'qi" she'rida shoir o'qish natijasida kambag'al bechoralarning asoratdan qutulib, madaniyat va san'atdan bahramand bo'lishi turgan gap deb uqtiradi. o'qishning qadrini muallif o'qituvchi-ustozlar tilidan shunday ta'riflaydi:

Gar dilingda o 'ylagan orzuga yetmoq istasang,
Qimmat nmring qilmag 'il behudaga bekor, o 'qi!
Ey o 'g 'il dunyoda bo 'lmoq istasang oliyjanob,
O 'qig 'il maktab kelib, zinhor o 'qi, mingbor o 'qi!

U "Maktab" she'rida "O'qub ilm-u adab bo'lgay garang hushyor maktabdin"

deb "Insonni inson qatoriga., qo'shish", insonni kamolotga yetkazish va uni oliyjanob, fazilatli kishi qilib yetishtirishda maktabning roli katta ekanligini ko'rsatadi. Shoir maktab tarbiyasidir.

TO'G'RISO'Z BOLA

Kelmog'ida maktabidan bir o'g'il,
To'xta debon ikki kishi to'sdi yo'l.
Bin dedi: „Tanga berurman sanga
So'zla bir og'izgina yolg'on manga".
Berdi o'g'il fikr ila shirin javob: ,
,So'zlang, ako, qomatingizga qarab.
Bu so'zingiz aslida yolg'on erur.
Tangaga yolg'onni kim olgan erur.
Sizda ko'p erkan o'zi yolg'on, ako,
Siz oni awal sotib aylang ado.
Qolsa kamib, yetmay agar sizdanam,
O'rtog'ingizda ko'p erur bizdanam".
Ofarin aytdilar oning so'ziga
Tangani xolis berubon o'ziga.
Hissa: kimi to'g'ri so'zli har qachon,
Tekuzadur doimiy bo'yla hison⁵.

2.I. M.Sh. Gulxaniy asarlarida ijtimoiy qarashlarining ifodasi.

Gulxaniy XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan mumtoz shoirlarimizdan biridir. Uning asl ism-sharifi Muhammad Sharif bo'lib, Gulxaniy adabiy taxallusi. Taxminlarga ko'ra, u XVIII asrning 70-yillarida hozirgi Xo'jand viloyatining Darvoza qish-log'ida tug'ilgan.

Bo'lajak shoirning bolaligi o'zi olamga kelgan tog' qishlog'ida o'tadi. Bu yerda o'qib, savod chiqaradi, adabiyotga havas qo'yadi. Ko'plab asarlar o'qiydi, xalq og'zaki ijodini berilib o'rganadi va asta-sekin she'riy mashqlar qila boshlaydi. U ilmini oshirish maqsadida avval Namangan, so'ngra Farg'onaga keladi, qiziqchiligi, hozirjavoblighi va hajviy she'rlari bilan kishilar o'rtasida taniladi. Ayniqsa, g'ariblik turkumidagi ruboiy va to'rtliklari bilan el og'ziga tushadi. Shoir keyinchalik Qo'qonga keladi. U o'zbekcha she'rlariga Gulxaniy, fors-tojikcha she'rlariga Jur'at deb taxallus qo'yadi.

Gulxaniy bir necha yil Qo'qon xoni Olimxon saroyida navkarlik qilgan, janglarda qahramonlik ko'rsatgan bo'lsa-da, ammo ochlik, yupunlik, muhtojlik uning hamrohi bo'lib qolaveradi.

Gulxaniyning „Ber menga" radifli she'ri ana shu davrda yozilgan.

Olimxondan keyin Qo'qon taxtiga chiqqan Umarxon hukmronligi davrida ham Gulxaniy turmushida hech qanday o'zgarish bo'lmadi.

Gulxaniy XIX asrning birinchi yarmida vafot etadi. Uning eng yirik asari „Zarbulmasal"dir. Bu o'tkir hajviy asarda Gulxaniy xalqning mazmundor maqollari, hikmatli so'zlari va iboralaridan mohirlik bilan foydalanadi. U feodal hukm-dorlar va ularning laganbardorlarini, saroy ahlining yaramas kirdikorlarini majoz yo'li bilan hajv tig'i ostiga oladi. Shoir mehnatkash xalqning og'ir, mashaqqatli hayotini o'z ko'zi bilan ko'rdi, saroy bazmlari, keti uzilmas mayparastliklar fuqaroni talash hisobiga bo'lishini payqadi. Natijada unda saroy zodagonlariga nisbatan nafrat hissi tobora oshib bordi. Ammo shoir, sharoitga ko'ra, hukmron doiralardan noroziligi va nafratini ochiq-oydin ifodalay olmas edi. Shuning uchun u majoziy shakldagi „Zarbulmasal" asarini yozishga kirishdi. Asarda shoirning maqsadi, hayotga, uni o'rab olgan muhitga, hokim tabaqalarga

bo'lgan munosabati to'g'ridan to'g'ri ifoda etilmay, balki hayvonlar, qushlar va shunga o'xshash majoziy obrazlarning tasviri orqali beriladi. Shoir shu tarzda o'zi yashagan zamonga, voqea-hodisalarga munosabatini, qarash-larini dadil aks ettiradi.

Muallif o'z masallaridagi majoziy obrazlar orqali hukmron sinf vakillarini fosh qiladi, mamlakatga xarobalik, qashshoqlik keltirgan o'zaro feodal urushlarga qarshi ommaning noroziligini ifodalaydi.

Gulxaniy o'z asarida majoziy yo'sinda Yapaloqqush va Boyo'g'lining bir-biriga quda bo'lishi voqeasini keltiradi. Bu ikki quda to'y bahonasi bilan mamlakatni xonavayron qiladi. Yozuvchi Ko'rqush, Hudhud, Kulankirsulton, Malik Shohim va Kordonlarning bir-birlariga aytgan masallari, hikoyalari orqali asarning g'oyaviy mazmunini ochadi.

Yapaloqqush va Boyo'g'lilar yuqori tabaqa vakillari. Ularning xatti-harakatlari, o'y-fikrlari, yurish-turishlari shumlik, yomonlikdan iborat. Adolatsiz urushlar orqali o'nlab sha-har va qishloqlarning vayron bo'lishi ular uchun bayramdir.

Gulxaniy „Maymun bilan Najjor“ masalida hunarni va hunar ahlini ulug'laydi, qo'lidan kelmaydigan ishga uri-nib, kulgi bo'ladigan ayrim noshud kimsalarni tanqid qiladi.

Mehnatkash xalqning og'ir hayoti va mehnati, huquqsiz-ligi va nochorligi „Tuya bilan bo'taloq“ masalida ta'sirli vositalarda ochib beriladi.

Gulxaniyning tasvirlashicha, tuya hayotda ezilgan, tutqun, erk-ixtiyorsiz, og'ir mehnatga mahkum etilgan mehnatkash laming majoziy obrazidir. Bo'taloq esa, og'ir, mashaqqatli hayot kechirgan, och-yalang'ochlikda, muhtojlikda yashagan erksiz mehnatkashlarning timsolidir.

Gulxaniyning „Toshbaqa bilan chayon“ masalida tasvir-lang'an Toshbaqa — aqlli, farosatli, sodiq va qadr-don do'st timsoli bo'lsa, Chayon butun umri bo'yi birov-larga ziyon-zahmat yetkazishni kasb qilib olgan, yaxshilikka yomonlik qaytaradigan, xiyonatkor toifalarning ramziy obrazidir.

2.2. M.Sh. Gulhaniy "zarbulmasal" haqida.

Ta'kidlanganidek, zarbulmasal masallar yig'indisi demakdir. *Masal* so'zi bir vaqtlar hozir biz qo'llaydigan maqol qo'shib gapirish, o'xsha-tishlar qilish, dalil keltirish ma'nolarini ham anglatadi. Zarbulmasalda u yoki bu hikoya tarkibida, ularning xulosasi o'rinda maqol, matallar keltiriladi. Zarbulmasal adabiyotimiz tarixida o'ziga xos ta'sirchan adabiy janr sifatida yashab kelgan. Zarbulmasal ko'proq axloqiy-ta'limiy hiko-yalardan iborat bo'lib, maqol, matallar, ularning tarbiyaviy xulosasini o'zida mujassam etadi. Bu janrdagi asarlarning asosiy xususiyati ularda majoziy usul qo'llanilishi, ya'ni voqea va hodisalar hayvonlar, qushlar tilidan hikoya qilinishini bilib oldingiz. Asarlarning mualliflari tanqid qilinajak kishilar ta'qibidan cho'chib'shu usulni qo'llaganlar. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarida ham garchi Buxoro, Qo'qon singari joy nomlari aniq ko'rsatilsa-da, u yerlarni boshqargan hukmdorlar, turli darajadagi zodogonlar fe'l-atvori qushlar timsolida ifoda etiladi.

«Zarbulmasal» tarkibidagi mashhur masallardan bin «Maymun bilan najjor» masali hisoblanadi. Bu masalda tasvirlanishicha, Hindistonning Kashmir viloyati atrofidagi tog'da bir maymun rohat-farog'atda, o'rmondagi daraxtlarning behisob mevalaridan xohlaganicha totinib, umrguzaronlik qilar edi. Nogoh bu tog' o'rmoniga bir najjor, ya'ni duradgor yog'och kesish uchun keladi. U bir daraxtni kesib, boshqasiga ketar ekan, u joyda teshasini unutib qoldiradi. Najjorning yumishini kuzatib turgan maymunga uning hunari oddiy bir ishdek tuyuladi. Xayoliga keladiki, bu ishni o'zi qoyillatib, kelgusi avlodlariga ham osongina o'rgatib qo'ysa. Najjorning yo'qligidan foydalangan maymun chala qolgan daraxtni kesmoq uchun uning ustiga minib, ishni o'zicha davom ettiradi. Shunda daraxt tanasi orasiga qistirilgan pona chiqib ketib, maymunning dumini qisib qoladi. Jon holatda bu ahvoldan qutulmoqni istagan maymun dumining bir qismi daraxt orasida qolib ketadi.

Har qalay, shoir bu masal orqali aytmoqchi bo'lgan fikrni angladingiz. Har qanday humming o'ziga xos sir-u sinoati, yillar davomida o'zlashtiri-ladigan nozik jihatlari bo'lishini anglarnaguncha kishi biror natijaga erishishi mumkin emasligi

ma'lum, albatta. Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar deganlaridek, masaldagi o'zibilarmon maymun ham ayanchli, ham kulgili holga tushadi. Hamma zamonlarda bo'lgani singari, Gulxaniy zamonida ham qo'lidan kelmagan ishga urinib, dovruq top-moqchi bo'lgan, natijada ham o'zini, ham xalqni qiynaydigan turli darajadagi kishilar ko'plab uchragan. Mazkur masalni mana shunday kishilarga nisbatan shoirning achchiq kinoyasi, xolis bahosi deb tushinish to'g'ri bo'ladi.

MASAL HAQIDA TUSHUNCHA

«Masal» so'zi arab tilida *namuna*, *misol* degan ma'noni anglatadi. Biz biror-bir fikrni tushuntiradigan bo'lsak, *masalan* so'zini ishlatishi-mizning boisi ham shunda. Badiiy adabiyotda *masal* so'zi mustaqil adabiy janr ma'nosida keladi. Masal didaktik, ya'ni axloqiy-ta'limiy janrdir. Bu janrga mansub asarlar she'riy yoki nasriy shaklda bo'lib, kichik hajmda bitiladi. Masal majoziy, ko'chmama'nodagi asarhisoblanib, undajamiyat, insonlar hayotidagi voqealar, ular o'rtasidagi munosabatlar hayvonlar, qushlar, buyumlar, o'simliklar vositasida tasvirlanadi. Bunday asarlar tan-qidiy ruhda yaratilgani uchun unda b^olajiyjasvir, mutoyiba, kinoya ustun bo'ladi. Masaldagi voqealar bayoni xuddi ertak, latifalarga o'xshasa-da, asar yakunida ta'limiy xulosa chiqariladi.

Masal janri qadim tarixga ega. Uning mukammal namunalarini miloddan avvalgi YL-V asrlarda buyuk masalnavis Ezop ijodida uchratamiz. Sharq adabiyotining atoqli namoyandalari Farididdin Attor, Navoiy o'z asarlarida masaldan unumli foydalanganlar.

Fransuz adibi Lafonten, ispaniyalik adib Lope de Vega, rus adiblari I. Krilov, S. Marshak, S. Mixalkovlar masallarning ajoyib namunalarini yaratganlar. Bugungi o'zbek adabiyotida Sami Abduqahhor, Olim Qo'ch-qorbekov, Muxtor Xudoyqulov, Yamin Qurbon kabi masalchi shoirlarimiz ushbu janrda faol ijod qilmoqdalar.

Xulosa

Bolalar adabiyoti umumadabiyotning ajralmas qismi sifatida zamon va makondan ayrica yashamaydi. Binobarin, jamiyat hayotidagi yangilanishlar kichkintoylar adabiyotida ham o'z aksini qoldirishi tabiiy. Istiqlol davri bolalar adabiyoti buning yorqin dalilidir.

Bolalar yozuvchilari o'z asarlari bilan yosh avlodning ongi, xarakteri va irodasini o'stirib, chiniqtirishda, ularni vatanparvar va mehnatsevar kishilar qilib tarbiyalashda xalqqa, mustaqil davlatimizga katta yordam berishlari kerak.

Adabiyotga, kitobga muhabbat qo'yishning o'zida hikmat bor. Avvalo, kitob hayotda odamga kaatta yo'lni topib olishga ko'maklashadi. Yaxshi bilan yomonni ajratish, milliy qadriyatlarimiz – ajdodlarimiz qoldirgan boy meroslarga hurmat hissini uyg'otib, yoshlarning ongini yuksaltirishga yo'l ochadi.

Gulxaniy ham «Zarbulmasal» asarida o'zining muhim ijtimoiy qarashlarini, el-ulus taqdiriga munosabatini sezirarli masallar orqali ifodalagan.

Mustaqil O'zbekistonimiz oldida juda ko'p masalalar bilan bir qatorda ham jismoniy, ham aqliy jihatdan chiniqqan, ma'naviy yetuk, hayotning turli sohalarida faollik bilan ish olib borishga qodir o'qimishli kishilarni voyaga yetkazishdek buyuk ishlar turadi. O'z navbatida, bunday ulkan vazifalar bolalar adabiyoti oldiga ham yuksak talablar qo'yadi. Faqat chinakam badiiy asarlargina bolalarning ongi va shuuriga kuchli ta'sir ko'rsata oladi. Shu sababli bunday kitoblar tarbiyaviy nuqtayi nazardan alohida ahamiyatga egadir

Xullas, bolalar adabiyotining mavzu doirasi kengaya bordi. Yoshlik, maktab hayoti, ona-yurt tabiati, xalqlar do'stligi, ilm, hunar va texnikaga muhabbat mavzulari bolalar adabiyotidan keng o'rin oldi

Foydalanilga adabiyotlar.

1. Karimov.I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. “Ma`naviyat” nashriyoti 2008-yil.
2. Karimov.I.A. Barkamol avlod - O`zbekiston kelajagining poydevori. Toshkent. “Ma`naviyat” nashriyoti 1997-yil.
3. O`zbekiston Respublikasi Davlat ta`lim standartlari. Toshkent.1997-yil.
4. Karimov I. A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. // “Fidoqor”gazetasi, 2002-yil 8-iyun.
5. Shermuhammedov. P va boshqalar .bek bolalar adabiyoti. Toshkent.” O`qituvchi “ nashriyoti. 1976-yil. 23-32-betlar.
6. Fozil Yo`ldosh o`g`li . “ Alpomish” dostoni. Toshkent. “bekiston” nashriyoti. 1993-yil . 224-bet.
7. Ahmedov.I va boshqalar, Bolalar adabiyoti. Majmua . Toshkent. “O`qituvchi” nashriyoti. 184- bet.
8. Boshlang`ich ta`lim uchun o`quv dasturlari. 1-4 sinflar, 7-maxsus son, T., 1999-2005- yil.
9. Zaynutdinova M. – O`quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish omillari. Xalq ta`limi jurnali, № 1, 2004 yil.